



## IJTIMOYLASHTIRISH OMILLARI VA MEXANIZMLARI

*Andijon davlat pedagogika institute  
Maktabgacha ta'lim yo'nalishi  
104-guruh talabasi B.Muxtorova*

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15226972>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada ijtimoiylashtirish jarayonining mohiyati, uning asosiy omillari va mexanizmlari tahlil qilinadi. Ijtimoiylashtirish- shaxsning jamiyatga moslashuvi, ijtimoiy normalar, qadriyatlar va madaniy me'yorlarni o'zlashtirish jarayoni hisoblanadi. Maqolada ijtimoiylashtirishning oilaviy, ta'lim, tengdoshlar guruhi va ommaviy axborot kabi omillar hamda identifikatsiya, intekektuallashuv lohihalash va boshqa shu kabi mexanizmlar yoritiladi. Ushbu mexanizmlar orqali shaxsning muhitga integratsiyasi va undagi o'z o'rnini topish tahlil qilinadi

**Kalit so'zlar:** Ijtimoiylashtirish, omillar, mexanizmlar, identifikatsiya, refleksiya, loyihalash, mezo, makro, mikro, mega, empatiya, impiringting, ekzistensial, rekleksiya.

Ijtimoiylashuv bolalar, o'smirlar, yoshlarning rivojlanishiga ta'sir qiluvchi ko'p sonli shart-sharoitlar bilan o'zaro munosabatida yuzaga keladi. Insonga ta'sir qiluvchi bu sharoitlar omil deyiladi. Ijtimoiylashuvning omillari ikki guruhga bo'linadi: Tashqi omillar va ichki omillar.

Tashqi omillarga quyidagilar kiradi:

Mega omillar (mega-eng katta)-kosmos, yer shari, planetlar va ular bilan bog'liq bo'lgan jarayonlarni kiritsa bo'ladi.

Makro omillar (makro-katta)-davlat, xalq, jamiyat, shuningdek bularga demografik, ijtimoiy, siyosiy, ekologik, ya'ni yerning barcha aholisining ijtimoiylashuviga ta'sir ko'rsatadigan omillar kiritiladi.

Mezo omillar (mezo-o'rta)-hudud va yashash joyi ommaviy aloqa tarmoqlari, u yoki bu submadaniyatga tegishliligiga ko'ra ajratilgan guruhlarining ijtimoiylashuvi shart-sharoitlari. Mezo omillar etnik qurilmalarni shakllantirish jarayoniga, mintaqaviy sharoitlarga, shu hududning OAVlariga ta'sir qiladi.

Mikro omillar, ya'ni muayyan shaxslarga ta'sir qiluvchi omillarga -oila, qo'shnilar, tengdoshlar guruhlari, tarbiya muassasalari, turli ijtimoiy, diniy, davlat, xususiy tashkilotlari kiradi.

**Ichki omillar:** Shaxs tug'ilganidan boshlab rivojlanadigan muhit sotsium yoki mikrosotsium deyiladi. Tashqi ijtimoiy omillardan tashqari ichki biologik omillar ham mavjud. Ularni bir- biridan mustaqil o'rganishning iloji yo'q. Zamonaviy ilmiy nazariyalarda shaxs rivojlanishining asosiy omillari sifatida biologik va ijtimoiy omillar ajratib ko'rsatiladi.

Ijtimoiylashuv jarayoniga samarali ta'sir qiluvchi va bu jarayonlarni faollashishida mexanizmlar muhim rol o'ynaydi. **Mexanizm bu** –harakatga keltiruvchi turtki, kuch hisoblanadi, ijtimoiylashuv jarayonida turtki vazifasini bajaradi. Ijtimoiylashuv jarayoni mexanizmlarini bir qator olimlar o'rganib chiqqanlar. Shulardan I.Podlasiyning tasnifi bo'yicha mexanizmlar:

1. **Bostirish mexanizmi:** Hohish istaklarni, g'oyani, fikrni ongdan chiqarib tashlash.

**Masalan:** Bolani ongidan salbiy istak-g'oyalarni ularning ongidan chiqarib tashlash ya'ni kattalarni hurmat qilmaslik, salom bermaslik, mashinalarda yoshi kattalarga joy bermaslik va shu kabilar.

2. **Ajratish mexanizmi:** Yomon taassurotlardan voz kechish, xotiralardan kechish.

**Masalan:** Biror yoqtirgan o'yinchog'ining buzilishi natijasida bola tushkunlikka tushadi pedagog esa o'yin davomida bolani chalg'itib tushkunlikdan olib chiqishi kerak.

3. **O'z-o'zini cheklash mexanizmi:** Bolani o'ziga bo'lgan ishonchini pasayishi, "men" konsepsiyasining yo'qolib borishi.



**Masalan:** boshqa bolalar bilan o'zini taqqoslash, boshqalar singari zo'r she'r ayta olmasligi, o'rtoqlari kabi raqsga tusha olmasligi va boshqalar bolani o'ziga bo'lgan ishonchini yo'qolishiga olib keladi.

**4. Loyihalash mexanizmi:** O'z kamchiliklarini boshqalardan deb hisoblash. O'zini aybini birovga to'ngash.

**Masalan:** Bola rasm chizib, u unchalik chiroyli chiqmasa, "Bu bo'yoqlar yaxshi emas ekan, shuning uchun rasmlarim chiroyli chiqmadi," deydi, lekin o'zining chizish mahoratini takomillashtirish zarurligini tan olmaydi. Ota-onasidan, tarbiyachidan tanbeh eshitmaslik uchun o'zi sindirgan o'yinchoqni boshqalardan deb hisoblashi ham mumkin.

**5. Identifikatsiya mexanizmi:** Bola hayolan o'zini qahramonlarga o'xshatish.

**Masalan:** Farzand ota-onasi yoki katta aka-opalariga taqlid qilib, ularning xulq-atvorini qabul qiladi. Masalan, ota-onasi o'qituvchi bo'lsa, bola ham o'zini kelajakda o'qituvchi sifatida his qila boshlaydi. O'zini o'rgimchak odamga o'xshatish va qo'llarini har xil shakllarga keltirish va boshqalar.

**6. Empatiya mexanizmi:** O'rtoqlarini, do'stlarini hissiy holatlariga hamdard bo'lish.

**Masalan:** Bola o'rtog'ini dardiga hamdard bo'ladi lekin ba'zi paytlarda nimaga yig'layotganini va nima sababdan kulayotganini bilmay birgalashib kulishadi va yig'lashadi.

**7. Intelektuallashuv mexanizmi:** bu mexanizmدا pedagoglarning ro'li juda muhim yani biron bir vaziyatda bolaning o'rtoqlari singari muammolariga yechim topish.

**Masalan:** Bolalar bog'chada o'ynayotib, to'p panjara yoki daraxt shoxiga tiqilib qoladi, bir bola uni qo'li bilan olishga harakat qiladi, lekin yeta olmaydi. Shu paytda tarbiyachi tayoqcha yoki uzun shox yordamida uni tushirish mumkinligini ko'rsatib beradi. U esa kuzatib xuddi shu usulni qo'llab, muammoni hal qiladi

**8. Harakatlarni bekor qilish mexanizmi:** Fikr, hissiyot, harakatlarini susaytirish uchun qo'llanadi.

**Masalan:** biror ish qilayotganda o'zini fikrlashi bo'yicha zo'r chiqayotgan bo'ladi, lekin biz o'z qarashlarimiz bo'yicha past baho beramiz va shu tariqa bola harakatlari susayadi.

Mudrikning tasnifiga bo'yicha mexanizmlar:

**1. Impiringting mexanizmi;** xotirada saqlab qolish degan manoni bildiradi. insonga ta'sir qiladigan hayotiy muhim obyektlarni eslab qolish.

**Masalan:** Bola har kuni bog'chaga boradigan yo'ni eslab qolib, ota-onasiga: "Mana bu yo'ldan yuramiz, keyin bog'chaga yetib boramiz," deb ayta oladi. Bola bog'chada tug'ilgan kunini qanday nishonlaganini yoki do'sti bilan qanday o'yin o'ynaganini eslab keyinchalik do'stlariga aytib berishi mumkin.

**2. Ekzistensial mexanizm:** tilni o'zlashtirish hamda ijtimoiy xulq atvor normalariga anglamagan holda ega bo'lish.

**Masalan:** har hil so'zlarni kattalardan o'zi bilmagan holda yodlab olish va u so'zni to'g'ri kelmaydigan joylarda ishlatish.

**3. Taqlid maxanizmi:** biror bir namunaga o'xshab harakat qilish.

**Masalan:** kichkina qiz onasining harakatlariga taqlid qilib, o'yinchoq qo'g'irchoqlarini ovqatlantirishga harakat qiladi, kichkina bola otasiga taqlid qilib o'yinchoq mashinasini "ta'mirlashga" urinadi yoki "ishga ketyabman" deb chamadon ko'tarib yuradi yokida o'zini multfilm qahramonlariga o'xshatadi, jo'ja kabi "piyo-piyo" qilib yuradi

**4. Refleksiya mexanizmi:** o'z-o'zini tahlil qilish, o'z hatti-harakatlarini tushunib yetish.

**Masalan:** Bola kublardan minoralar qurayotganda noto'g'ri joylashtirib, uni qulatib yuboradi. Keyin o'ylab ko'rib: "Men pastiga katta kub qo'yishim kerak ekan!" deb xatoni tuzatadi.

Bolani kamol topishida, shaxs bo'lib yetishishida ijtimoiylashuv jarayoni muhim rol o'ynaydi. Jamiyat qabul qilgan qarorlarni o'zlashtirish, ijtimoiy tajribalarani egallash jarayoni orqali sodir bo'ladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati



1. Mo‘minova, G. (2023). Maktabgacha talim tashkilotlari tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari. *Science and innovation in the education system*, 2(2), 122-126.
2. Gulhayo, M. (2023). Technologies for development of general competences of preschool teachers. *Science and Innovation*, 2(4), 632-634.
3. Iminova D. (2024). Innovativ loyihalar vositasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida o‘qish motivatsiyasini rivojlantirishning mazmuni. *Экономика и социум*, (5-2 (120)), 266-274.
4. Iminova, D. N. (2021). Maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab o'rtasidagi hamkorlikning ahamiyati. *Science and Education*, 2(1), 301-303.
5. Xusanovich, M. O. (2024, November). MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA TADBIRKORLIK MADANIYATIGA O'RGATISH. In *INTERDISCIPLINE INNOVATION AND SCIENTIFIC RESEARCH CONFERENCE* (Vol. 3, No. 25, pp. 16-18).
6. Mirzayev, O. (2023). ERTAK-TERAPIYASI VA TADBIRKORLIK MADANIYATI ELEMENTLARINING INTEGRATSIYASINI TA'MINLASHNING METODIK TIZIMI. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 2(25), 92-94. <https://orcid.org/0009-0004-8134-3925> ORCID
7. Khusanovich, T. M. O. DEVELOPING STEAM COMPETENCIES IN OLDER PRESCHOOLERS.